

TARIXIY DISKURSNING BADIY MATNLARDA VOQELANISHI

Soliyeva Xusnidaxon Hasanboy qizi,

University of Business and Science Filologiya fakulteti

Til va adabiyot ta'limi o'qituvchisi

E-mail: husnida201@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy diskursning badiiy matnda voqelanishi, tarixiy va arxaik leksik birliklarning lingvopoetik hamda lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy roman diskursida qo'llangan leksemalarning milliy-madaniy muhitni, tarixiy xotirani va retrospektiv tafakkur modelini ifodalashdagi o'rni yoritilgan. Javlon Jovliyevning *Qo'rqma* romanidagi "kent", "mozor", "xaroba", "Turkiston", "zabon", "arvoh" kabi birliklarning semantik va uslubiy funksiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tarixiy leksemalar badiiy matnda tarixiy voqelikni rekonstruksiya qilish, tarixiy kolorit yaratish hamda muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy diskurs, arxaik leksika, lingvopoetika, badiiy matn, retrospektiv tafakkur.

Аннотация. В данной статье анализируется реализация исторического дискурса в художественном тексте, а также лингвопоэтические и лингвокогнитивные особенности исторической и архаической лексики. Особое внимание уделяется роли лексических единиц в отражении национально-культурной среды, исторической памяти и ретроспективного мышления. На материале романа *Qo'rqma* рассматриваются семантические и стилистические функции таких единиц, как «kent», «mozor», «xaroba», «Turkiston», «zabon», «arvoh». Исторические лексемы интерпретируются как важное средство реконструкции исторической реальности, создания исторического колорита и выражения индивидуального авторского стиля.

Ключевые слова: исторический дискурс, архаическая лексика, лингвопоэтика, художественный текст, ретроспективное мышление.

Annotation. This article examines the realization of historical discourse in literary texts and analyzes the linguopoetic and linguocognitive features of historical and archaic lexical units. The study focuses on the role of lexical units in reflecting the national-cultural environment, historical memory, and retrospective thinking. Based on *Qo'rqma*, the semantic and stylistic functions of lexemes such as "kent," "mozor," "xaroba," "Turkiston," "zabon," and "arvoh" are analyzed. Historical lexical units are interpreted as important means of reconstructing historical reality, creating historical coloring, and expressing the author's individual style.

Keywords: historical discourse, archaic lexicon, linguopoetics, literary text, retrospective thinking.

Kirish. Tarixiy diskursda badiiy matn etnomadaniy olamni ma'lum til birliklari bilan muhim diskursiv vosita sifatida namoyon qiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, tarixiy asarlar tilida qo'llanilgan birliklarning kognitiv, psixologik, semiologik transformatsiyaga uchrashi ularning asosiy lingvopoetik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy leksik qatlam semantikasi o'sha davrning ijtimoiy-madaniy hamda mental xususiyatlarini to'laqonli ko'rsatib beradi. Bunday birliklarning semantik dinamikasini tadqiq etishda lingvokognitiv yondashuv muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Chunki muayyan davrga mansub kognitiv-diskursiv so'zlarning mazmuniy qiymatini, ularning konnotativ va konseptual yuklamasini belgilaydi. Natijada tarixiy roman diskursida til va madaniyat, milliy ong tushunchalari o'rtasida badiiy konseptosfera shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy diskursda tarixiy leksemalar muallifning estetik-badiiy niyatini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Arxaik leksik

qatlarga mansub soʻzlarning qoʻllanishi tarixiy voqelikni bilish jarayonida matnning diaxron semantik tizimini yuzaga chiqaradi. Mazkur hodisa, avvalo, tasvirlanayotgan davrga xos koloritning shakllanishi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy asarda muallif tafakkuri va diskursiv ongi muayyan lingvomadaniy makonga daxldor lisoniy shaxs sifatida namoyon boʻladi hamda matn semantikasining tarixiy-madaniy qatlamini belgilaydi.

Asar muallifi etnoqadriyatlar va madaniy xotira tashuvchisi sifatida konseptual bilimlarni til birliklari orqali “kod”laydi. Natijada tarixiy diskurs tarkibidagi har bir leksik birlik nafaqat nominativ maʼno, balki tarixiy mazmun va madaniy assotsiatsiyalarni ham oʻzida mujassamlashtiradi. Bu esa matnda aks etayotgan tarixiy muhitning mental, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, muallifning lisoniy shaxsi tarixiy asar poetikasida retrospektiv olam modelini yaratishda asosiy konseptual omillardan biri hisoblanadi..

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda diskursiv tahlil, lingvokognitiv, lingvopoetik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Javlon Jovliyevning Qoʻrqma romanida qoʻllangan tarixiy leksemalar “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” asosida tahlil qilindi..

Tahlil va natijalar. E.S.Kubryakovaning fikriga koʻra, “tarixiy romanda oʻsha davrga xos milliy-madaniy qadriyatlar va dunyoqarash hamda xulq-atvor belgilari har bir personaj nutqida maʼlum bir davrning lisoniy shaxsi sifatida xarakter kasb etishi talab etiladi. Bunday belgilar ularning gap-soʻzlarida, xatti-harakatlarida, tashqi koʻrinishlarda, ichki holatlarda, tasvirlangan tarixiy voqealarga, eskirgan obyektlar va hodisalarga baholovchi munosabatlarida namoyon boʻladi”[.305-306]. Mazkur mezon tarixiy asar matnida qoʻllangan tarixiy leksemalarning semantik va funksional dinamikasini badiiy-tarixiy olam manzarasi bilan uzviy aloqador holda talqin etishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, tarixiy diskursda zamon kategoriyasining kognitiv va diskursiv mexanizmlari til birliklarining maʼno transformatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon boʻladi. Taʼkidlanganidek, arxaik soʻzlarning matn tarkibida qoʻllanishi nafaqat nominativ vazifani, balki muayyan tarixiy davrga xos tafakkur modeli, mental stereotip va madaniy xotirani ifodalovchi konseptual birlik sifatida ham baholanadi.

Tarixiy roman diskursida zamon kategoriyasi retrospektiv idrok shakli bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u muallifning tarixiy voqelikni qayta konseptuallashtirish jarayonida namoyon boʻladi. Bunday yondashuvda tarixiy soʻzlar tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va maʼnaviy muhitini rekonstruksiya qiluvchi lingvokognitiv vosita vazifasini bajaradi. Natijada tarixiy matnda leksik birliklarning diaxron oʻzgarishi muallif tafakkuridagi zamon modeli hamda badiiy-tarixiy konseptosferaning shakllanishi bilan izohlanadi.

Demak, tarixiy diskursida eskirgan soʻzlarning funksional-semantik xususiyatlarini zamon kategoriyasining kognitiv-diskursiv mexanizmlari asosida oʻrganish badiiy matnda tarixiy olam manzarasining qanday shakllanishini, muallifning retrospektiv tafakkur

modeli qay tarzda namoyon bo'lishini hamda tarixiy voqelikning til orqali konseptuallashuv jarayonini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanida qo'llangan tarixiy va arxaik leksik birliklar badiiy-tarixiy diskursning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu birliklar "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi ma'nolari asosida tahlil qilinganda, ular tarixiy voqelikni jonlantirish, milliy-madaniy muhitni aks ettirish va muallifning retrospektiv tafakkur modelini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi kuzatiladi. Quyida ayrim tarixiy birliklarning lingvosemantik xususiyatlari ilmiy asosda sharhlanadi.

Asarda keltirilgan tarixiy so'z (toponim)larni o'sha davr koloritini ifodalashda muhim funksiya bajargan:

Kent – qadimgi turkiy tillarda "shahar", "qishloq", "aholi yashaydigan manzil" ma'nolarini ifodalagan. Mazkur leksema badiiy matm diskursida tarixiy makon konseptini shakllantirib, qadimgi Turkiston muhitining urbanistik manzarasini ifodalashga xizmat qilgan. "Kent" leksemasining qo'llanishi matnga arxaik kolorit bag'ishlaydi hamda retrospektiv zamon semantikasini kuchaytiradi.

Ko'hna kentni tinglashing uchun xarobalari ichra ming kecha bedor turishing yetarli (11-bet). Mazkur matnda kent so'zi Samarqand hududiga ishora qilib kelgan.

Mozor – ma'lumki, "qabr", "ziyosatgoh", "qabriston" ma'nolarini ifodalaydi. Mazkur leksema asarda diniy-madaniy konsept sifatida tarixiy muhitning sakral qatlamini ifodalashga xizmat qiladi. "Mozor" leksemasi orqali xalqning diniy tasavvurlari va milliy mentaliteti badiiylashtirilgan.

...Shuning uchun ham oyoqlarim o'z-o'zidan mozorda yurgan kabi ehtiyotlanmoqda (11-bet).

Xaroba – "vayrona", "buzilib ketgan joy" ma'nolarini anglatadi. Asar matnida ushbu leksema tarixiy tanazzul va ijtimoiy iztirob semantikasini yuzaga chiqaradi. Natijada tarixiy voqelikning dramatik manzarasi hosil bo'ladi.

Eski Shahar xarobalariga tikilganim sayin ko'hna kentning olis va og'ir hasrati kuch bilan yelkandan bosib borayotgandek qadamlarim battar unmay qoldi (11-bet).

Turkiston – tarixiy-geografik va etnomadaniy konsept sifatida qo'llangan. Mazkur atoqli ot nafaqat hududni, balki milliy o'zlik, tarixiy xotira va madaniy birlikni ham anglatadi. Shuning uchun "Turkiston" leksemasi asarning konseptual markazlaridan biri hisoblanadi.

Berlinga otlangan Turkiston talabalari (11-bet).

A.T.Gigolayeva badiiy-tarixiy asarning lisoniy tadqiqi haqida quyidagilargi ta'kidlaydi: "Diskursiv tahlil so'z semantikasida tarixiy o'zgarishlar yuz beradigan kommunikativ-madaniy muhitni tiklashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu turdagi tahlilning diagnostik salohiyati badiiy-tarixiy diskurs asosiy tushunchalarining kognitiv-semantik o'zgaruvchanligini topish va aniqlash imkonini berishi bilan xarakterlanadi. Tarixiy roman matnining konseptosferasini bunday tahlil qilish mazmuniy-tematik va kommunikativ-

pragmatik xususiyatlarga ega bo'lgan muayyan kontekstlarda amalga oshiriladi"[2.113-120].

Demak, A.T.Gigolayevaning fikriga ko'ra, tarixiy diskursni badiiy matnda voqelanishi quyidagilarga imkon beradi:

- muallifning badiiy-estetik niyatidan to badiiy gavdalanishgacha bo'lgan ijodiy jarayonini idrok etish;
- asarning badiiy olamini badiiy-tarixiy konseptda aks ettirilgan aksiologik, gnoseologik va ontologik ma'nolar nuqtayi nazaridan o'rganish;
- muallif tomonidan olamning badiiy-tarixiy manzarasini modellashtirish xususiyatlarini aniqlash;
- muallif badiiy-tarixiy tafakkurining tilda aks etgan obrazlilikining o'ziga xosligini ko'rsatish;
- badiiy-tarixiy manzaraning maksimal semantik mazmuni u yaratgan badiiy obrazlarning kognitiv substrati bo'lib xizmat qilishini aniqlash[3.113-120].

Asarda tarixiy diskursni yuzaga chiqaruvchi leksemalar sifatida mavhumlik ma'nosini aks ettirgan so'zlarni ham keltirish mumkin:

Zabon – eski kitobiy uslubga mansub bo'lib, “til”, “nutq” ma'nolarini anglatadi. Mazkur birlikning qo'llanishi tarixiy-badiiy diskursda sharqona adabiy muhit va eski yozma an'analarni aks ettiradi. Lingvopoetik jihatdan “zabon” leksemasi matnning uslubiy ekspressivligini oshiradi.

...Men esa unga zabon va quloq bo'laman... (11-bet)

Arvoh – “ruh”, “marhumning ruhi” tarzida izohlanuvchi so'zdir. Ushbu leksema mifologik va diniy tafakkur mahsuli sifatida tarixiy ongning irreal qatlamini ifodalaydi. Asarda arvoh obrazi orqali xalqona e'tiqod va ruhiy kechinmalar konseptuallashtiriladi.

Arvohlar va o'liklar janggi ham qiziq (11-bet)

Adabiyotshunos olimi Y.S.Rayneke ta'kidlaganidek, “tarixiy roman ikki tamoyil – adabiyot va tarixni o'zida mujassam etgan gibril janrga aylandi. Ya'ni, tarixiy roman muallifi real tarixiy dalillarga asoslangan xayoliy dunyo yaratadi. Agar tarixchi saqlanib qolgan konturlar bo'ylab o'tmishni tiklasa, tarixiy roman muallifi voqelikni qayta tiklash bilan birga, ochiq qolgan bo'shliqlarni ham to'ldiradi. Tarixiy jarayon o'quvchi uchun tushunarli, tanish va yaqin qilib tasvirlanadi. Bunga erishish uchun esa yozuvchidan ajdodlar, millat, mamlakat hayoti va urf-odatlarini sinchkovlik bilan o'rganish, tarixiy-badiiy olam manzarasini real, ishonarli tasvirlash talab etiladi”[4.26].

Adabiyotshunoslikda muallif nutqiga quyidagicha ta'rif beriladi: “Muallif obrazi asarda tasvirlangan va tasavvurimizda jonlanuvchi badiiy voqelikni yaxlitlashtiruvchi subyektiv asos bo'lganidek, muallif nutqi asarning moddiy tarafini (til unsurlari vositasida yaratilgan matnni) yaxlitlashtiruvchi unsurdir. Muallif nutqi grammatik jihatdan adabiy til normalariga yaqinlashadi, biroq uning adabiy til normalariga to'la muvofiq kelishini talab qilish xato bo'lur edi. Zero, yozuvchi o'zining his-kechinmalarini, o'y-fikrlarini imkon

qadar yorqin ifodalashga intilarkan, ba'zan adabiy til normalaridan chekinadi, bu bilan milliy til imkoniyatlarini kengaytirishga hissa qo'shadi, chunki ayni shu chekinishlarning vaqti kelib adabiy til normasiga aylanishi ehtimoldan yiroq emas"[5.183].

Badiiy matn tilida adabiy til me'yorlaridan maqsadli ravishda chekinish hodisasi yozuvchining individual uslubini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, roman janrida muallif nutqida qo'llanish doirasi cheklangan, arxaik, dialektal yoki tarixiy qatlamga mansub leksik birliklarning qo'llanishi badiiy-estetik vazifani bajaradi. Bunday birliklar matnda nafaqat nominativ funksiyani, balki voqelikni muayyan davr ruhiga mos tarzda ifodalash, tarixiy-madaniy muhitni rekonstruksiya qilish hamda uslubiy kolorit yaratish vazifasini ham bajaradi.

Tarixiy diskursda voqelik, asosan, zamonaviy adabiy til me'yorlari asosida muallif nutqi orqali bayon qilinadi. Biroq yozuvchi badiiy tasvir jarayonida kommunikativ-pragmatik maqsaddan kelib chiqib, ayrim nutqiy vaziyatlarda adabiy normadan chekinadi. Xususan, tarixiy yoki retrospektiv voqelikni ishonarli tasvirlash zarurati muallifni muayyan so'zning eskirgan yoki tarixiy variantini qo'llashga undaydi. Natijada til birliklarining sinonimik qatorida mavjud bo'lgan arxaik variantlar matnda faol uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, zamonaviy "til" leksemasi o'rnida "zabon", "qo'shin" o'rnida "lashkar" yoki "sipoh", "buyruq" o'rnida "farmon" birliklarining qo'llanishi tarixiy davrning lingvomadaniy xususiyatlarini tiklashga xizmat qiladi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan bunday birliklarning qo'llanishi matnning uslubiy yaxlitligini ta'minlaydi. Chunki roman janrining turi — tarixiy, zamonaviy, fantastik yoki falsafiy xarakterga egaligi unda qo'llaniladigan til vositalarining tanlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy romanlarda arxaik va tarixiy leksikaning faol qo'llanishi retrospektiv zamon semantikasini yuzaga chiqarib, o'quvchi ongida tarixiy olam manzarasini shakllantiradi. Fantastik yoki mifopoetik asarlarda esa normadan chekinuvchi birliklar irreal yoki shartli badiiy makonni yaratishga xizmat qiladi. Demak, qo'llanish doirasi cheklangan so'zlarning tanlanishi asarning mavzusi, janriy xususiyati hamda muallifning individual estetik konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, adabiy til normasidan bunday maqsadli og'ishlar matnning ekspressiv-emotsional ta'sirchanligini ham kuchaytiradi. Arxaik birliklar o'quvchida tarixiy assotsiatsiyalarni uyg'otib, matnning konseptual qatlamini boyitadi. Natijada badiiy diskursda til birliklari oddiy kommunikativ vosita bo'lib qolmay, balki tarixiy xotira, milliy mentalitet va madaniy ongni ifodalovchi lingvokognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Asar tilida adabiy me'yorlardan chekinish hodisasi tasodifiy emas, balki muallifning estetik va pragmatik niyatiga asoslangan lingvopoetik strategiya hisoblanadi. Bu strategiya orqali yozuvchi badiiy voqelikning tarixiy, madaniy va ruhiy qatlamlarini chuqurroq ochib beradi hamda asarning uslubiy uyg'unligini ta'minlaydi.

Aytish kerakki, olamning badiiy manzarasini shakllantirish jarayonida muallif nutqi markaziy va yetakchi komponentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asarda voqelikning qay tarzda tasvirlanishi, obrazlarning estetik talqini hamda o'quvchi ongida muayyan konseptual tasavvurning yuzaga kelishi, avvalo, yozuvchining individual nutqiy strategiyasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan muallif nutqi badiiy diskursning nafaqat kommunikativ vositasi, balki olamning estetik modeli va konseptual manzarasini yaratuvchi lingvopoetik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnda yozuvchi tomonidan tanlangan ifoda usuli, leksik birliklarning individual qo'llanishi, tasvir vositalarining semantik va emotsional imkoniyatlaridan foydalanish usullari o'quvchi tafakkurida yangi assotsiativ maydonlarni hosil qiladi. Natijada muallifning o'ziga xos nutqiy uslubi badiiy tasavvurlarni kengaytirib, voqelikning estetik idrokini chuqurlashtiradi. Ayniqsa, tarixiy-badiiy diskursda arxaik birliklar, tarixiy terminlar, metaforik ifodalar hamda ekspressiv sintaktik qurilmalar muallifning individual lisoniy manzarasini shakllantiruvchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Lingvokognitiv nuqtayi nazardan qaralganda, muallif nutqi badiiy konseptosferaning verbal modeli hisoblanadi. Chunki yozuvchi voqelikni oddiy aks ettirmaydi, balki uni o'zining estetik tafakkuri, tarixiy xotirasi va individual dunyoqarashi asosida qayta konseptuallashtiradi. Shu bois badiiy matnda qo'llangan har bir til birligi muallif ongidagi mental strukturalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi esa ushbu birliklarni idrok etish orqali tasvirlangan voqelikni real tarixiy yoki hayotiy hodisa sifatida qabul qiladi. Demak, badiiy matnning ta'sirchanligi ko'p jihatdan muallif nutqining konseptual va emotsional quvvatiga bog'liqdir.

Shuningdek, yozuvchining individual ifoda yo'sini asarda pragmatik ta'sirchanlikni yuzaga chiqaradi. Muallif tomonidan qo'llangan metaforalar, ramziy birliklar, tarixiy va madaniy konnotatsiyalar o'quvchi ongida kuchli emotsional-ekspressiv rezonans hosil qiladi. Bu esa badiiy voqelikning ishonarliligini oshirib, o'quvchini matn ichidagi ruhiy va tarixiy muhitga yaqinlashtiradi. Natijada asarda aks etgan voqea-hodisalar badiiy to'qima sifatida emas, balki real hayotiy tajriba sifatida idrok etila boshlaydi.

Olamning badiiy manzarasini yaratishda muallif nutqi nafaqat tasvir vositasi, balki badiiy tafakkur va estetik konsepsiyaning asosiy verbal shakli hisoblanadi. Yozuvchining individual uslubi, til birliklarini tanlashdagi lingvopoetik mahorati hamda konseptual tafakkuri asarning emotsional-estetik ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, o'quvchi ongida voqelikning badiiy modelini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E. S. Kubryakova. *O tekste i kriteriyakh ego opredeleniya* // Tekst. Struktura i semantika. – Moskva, 2001.
2. Teun A. van Dijk. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Yuri Lotman. *Semiosfera*. – Sankt-Peterburg: Iskusstvo-SPB, 2000.

4. M. A. Halliday. *Language as Social Semiotic*. – London: Edward Arnold, 1978.
5. N. D. Arutyunova. *Diskurs // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'*. – Moskva: Sovetskaya entsiklopediya, 1990.
6. Charles William Morris. *Foundations of the Theory of Signs*. – Chicago: University of Chicago Press, 1938.
7. Ferdinand de Saussure. *Kurs obshchey lingvistiki*. – Moskva: Progress, 1977.
8. Ludwig Wittgenstein. *Philosophical Investigations*. – Oxford: Blackwell, 1953.
9. Dell Hymes. *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974.
10. Zellig Harris. "Discourse Analysis" // *Language*. – 1952. – Vol. 28. – №1. – P. 1–30.
11. Mikhail Bakhtin. *Estetika slovesnogo tvorchestva*. – Moskva: Iskusstvo, 1979.
12. Qo'rqma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
13. Gigolayeva A.T. *Istoricheskiy diskurs i ego lingvokognitivnye osobennosti // Filologicheskie issledovaniya*. – Moskva, 2015.
14. Rayneke Y.S. *Istoricheskiy roman kak gibridnyy zhanr // Voprosy literaturovedeniya*. – Sankt-Peterburg, 2012.
15. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
16. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

